

Yana to'rtta tumanda maktablarning kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi o'rganildi



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov hududlarga tashrifini Angor, Muzrabot, Sherobod hamda Qiziriq tumanlarida davom ettirib, maktablarning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, DXSh asosida markazlashgan isitish tizimini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Jumladan, Angor tumanidagi 36-sonli, Muzrabot tumanidagi 10-sonli, Sherobod tumanidagi 45, 66-sonli va Qiziriq tumanidagi 3-sonli maktablarda ishlar ko'zdan kechirilib, ushbu tumanlarda ijtimoiy soha ob'ektlarida markazlashgan isitish tizimini joriy etish bo'yicha bajarilgan ishlar va kelgusidagi rejalar yuzasidan mas'ullarning hisoboti tinglandi.

Shuningdek, hududlarda aholi uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, ko'mir yoqilg'isi bilan ta'minlash, ko'rsatilgan kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni undirish borasida olib borilayotgan ishlar ham muhokama qilindi. Soha mas'ullari axborot berdi.

Viloyat rahbari ayrim tumanlarda bu borada sustkashlikka yo'l qo'yilayotganligini tanqid qilib, mutasaddilarga ishlarni tizimli yo'lga qo'yish hamda jadallashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)